



O'ZBEK, RUS VA QORAQALPOQ TILLARIDA SIFAT SO'Z TURKUMI

Usanova Qademay Muratbay qizi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Turkiy tillar fakulteti o'zga tilli guruhlarda o'zbek tili yo'nalishi 2-
bosqich talabasi

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.10477293>

ARTICLE INFO

Received: 02nd January 2024

Accepted: 09th January 2024

Online: 10th January 2024

KEY WORDS

Sifat, имя прилагательное, kelbetlik, belgi, daraja, sin, sapa, intensive forma, sapaliq, qatnasliq, sifatlanmish, qisqatma sifat, притяжательные прилагательные..

ABSTRACT

Mazkur maqolada o'zbek, rus va qoraqalpoq tillarida sifat so'z turkumi, ularning turlari o'xshash va farqli tomonlari tadqiq etildi.

Sifat – o'zbek, rus va qoraqalpoq tillarida predmetning belgisini bildiruvchi so'z turkumi hisoblanadi¹. Masalan: yangi shahar- новый город – taza qala; ko'k maysa – зелёная трава – ko'k sho'p; qizil olma – красное яблоко – qizil alma kabi.

O'zbek tili sifatlarida sifatlikni ko'rsatuvchi maxsus forma yo'q. Shuning uchun ham o'zbek tilidagi sifatlar boshqa so'z turkumlaridan, asosan, semantik jihatdan farqlanadi. Masalan: oq, tez, yaqin so'zlarining morfologik formasi o'zaro o'xshash, lekin ma'noga ko'ra oq-sifat, tez va yaqin so'zlari –ravish hisoblanadi. Demak, bu 3 so'zning qaysi turkumga tegishli ekanligini ularning formasidan emas, balki anglatayotgan ma'nosidan farqlaymiz.

Rus tilida esa mutlaqo boshqacha grammatik holatni ko'ramiz. Rus tilida sifat – имя прилагательное deb yuritiladi. Rus tilidagi sifatlarda sifatlikni ko'rsatuvchi maxsus forma bor. Shuning uchun ham ular boshqa so'z turkumlaridan faqat ma'nosi bilangina emas, morfologik belgilari bilan ham keskin farq qiladi.

Rus tilidagi sifatlarning bosh kelishik birlik son formasidagi morfologik belgilarini ko'rib chiqamiz:

1. **-ый, -ий, -ой:** белый, деревянный, синий, приморский, большой, молодой.

2. **-ая, -яя:** новая, красивая, утренняя, вчерашняя.

3. **-ое, -ее:** золотое, круглое, сильнее, умнее. Rus tilidagi sifatlar mana shunday tugallanmalari bilan boshqa so'z turkumlaridan, ayniqsa, ravishlardan farqlanib turadi. Masalan: хороший – хорошая – хорошее – sifat, хорошо – ravish; высокий – высокая – высокое – sifat, высоко – ravish; искренний – искренняя – искреннее – sifat, искренне – ravish kabi.

¹ Azizov O. va boshqalar. O'zbek va rus tillarining qiyosiy grammatikasi Toshkent, 1965. – B. 42.



Rus tilidagi sifatlar otga, ravishlar esa fe'lga bog'lanib keladi. O'zbek va qoraqalpoq tilidagi sifatlar esa ko'pincha otga, ba'zida esa fe'lga bog'lanib keladi. Masalan: yaxshi kitob – хорошая книга – jaqsi kitap. U yaxshi o'qidi. Он читал хорошо. Ol jaqsi oqidi. Bu misollardagi yaxshi so'zi so'z turkumi jihatdan sifat bo'lib, birinchi misolda otga ergashib, aniqlovchi vazifasini, ikkinchi misolda esa fe'lga ergashib, hol vazifasini bajarib kelmoqda.

Qoraqalpoq tilida sifat so'z turkumi – kelbetlik deb yuritiladi. Qoraqalpoq tilidagi kelbetlik qanday? qaysi? savollariga javob berib, narsalarning belgisi, sifatini, xususiyatini, miqdorini, rang-tusini va boshqa belgilarini bildiradigan so'z turkumi hisoblanadi. Morfologik sifati jihatidan kelbetlik so'z o'gartiruvchi affiksalar bilan o'zgarmaydi. O'zi aniqlaydigan ot bilan juftlashish usuli orqali bog'lanadi: aq oramal, jasil ko'ylek, suwiq suw, jas bala, juwan arqan, awir ju'k kabi. Qoraqalpoqcha sifatlar ham daraja kategoriyasiga ega. Qoraqalpoqcha sifatlar boshqa so'z turkumlaridan farqi uning intensiv formalari bo'lib hisoblanadi². Masalan: sap-sari, u'p-u'lken, teppe-ten', qip-qizil, jep-jen'il, ap-awir, jap-jaqsi kabi. Qoraqalpoq tilidagi sifatlar asosan, otlarni aniqlab, aniqlovchi bo'lib keladi.

Sifatlar har 3 tilda asliy sifatlar – качественные прилагательные – sapaliq kelbetlikler va nisbiy sifatlar – относительные прилагательные – qatnasliq kelbetlikler bo'lib 2 turga bo'linadi. Masalan: yangi gazeta – свежая(новая) газета – jan'a gazeta, qiziq hikoya – интересный сказ – qiziq gu'rrin', qora do'ppi – чёрная тюбитейка – qara taqiya, shirin qovun – сладкая дыня – mazali qawin – bular asliy sifatlar. Devoriy gazeta – стенная газета – diywaliy gazeta, kechki maktab – вечерняя школа – keshki mektep, ilmiy maqola – научная статья – ilimiy maqala – bular nisbiy sifatlar hisoblanadi.

Rus tilida predmetning kimga qarashli ekanligini bildiruvchi nisbiy sifatlar bor. Bunday sifatlar чей?, чья?, чьё?, чьи?, so'roqlariga javob beradi va rus tilida притяжательные прилагательные deb yuritiladi. Bunday sifatlar jonli predmetni bildiruvchi otlar orqali yasaladi³. Masalan: Из далекого ущелья послышался медвежий рёв (Алексей Толстой. Пётр Первый)⁴.

O'zbek tilida asliy sifatlarda 3ta daraja ajratiladi. Bular: oddiy daraja, orttirma daraja, ozaytirma daraja.

Rus tilida esa sifatning: oddiy daraja, qiyosiy daraja, orttirma daraja shakllari mavjud.

Qoraqalpoq tilida sifatlar gap ichida kelganida, asosan narsaning belgisi bilan birga shu belgining darajasini ham bildirib keladi. Daraja sifatning daraja formalari yordamida aniqlanadi. Hozirgi qoraqalpoq tilida sifat darajalarining 3 xil turi mavjud: Jay da'reje(oddiy daraja), salistiriw da'reje(qiyosiy daraja), arttiriw da'reje(orttirma daraja).

Rus tilidagi asliy sifatlar qisqartma shaklga ega. Masalan: красивый-красив, полезный-полезен kabi. Qisqartma sifatlar ot bilan rod va sonda moslashib, odatda kesim vazifasida keladi. Bunday sifatlar turlanmaydi⁵. O'zbek va rus tillarida esa qisqartma sifatlar yo'q.

Rus tilidagi sifatlar sifatlanuvchidan oldin ham, keyin ham kelishi mumkin. O'zbek va qoraqalpoq tillarida esa sifat har doim sifatlanuvchidan oldin keladi.

² Da'wletov A. va boshqalar. Ha'zirgi qoraqalpoq a'debiy tili. – No'kis, 2010. – B.107.

³ Azizov O. va boshqalar. O'zbek va rus tillarining qiyosiy grammatikasi Toshkent, 1965. – B. 42.

⁴ <https://russkiyazyk.ru/chasti-rechi/prilagatelnoe/prilazhatelnye-prilagatelnye.html>

⁵ Hamrayeva Y. O'zbek va rus tillarining qiyosiy tipologiyasi. –Qarshi, 2007. – B.22.



Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, sifat so'z turkumi har 3 tilda ham predmetning belgisini bildiradi. O'zbek va qoraqalpoq tillarida sifatlar boshqa so'z turkumlaridan semantik jihatdan farqlansa, rus tilida esa sifatlikni ko'rsatuvchi maxsus forma bo'lib, ular faqat ma'nosi bilangina emas, morfologik belgilari bilan ham ajralib turadi. O'zbek va qoraqalpoq tillarida sifat otga bitishuv yo'li bilan bog'lansa, rus tilida esa moslashuv yo'li orqali yasaladi. O'zbek va qoraqalpoq tilida sifatlar asliy va nisbiy, sapaliq va qatnasliq bo'lib 2 ta turga bo'linsa, rus tilida sifatlar 3ta turga: качественные прилагательные, относительные прилагательные, притяжательные прилагательные (egallik sifatlar) ajratiladi. Rus tilida qisqartma sifatlar mavjud. Ular turlanmaydi. O'zbek va qoraqalpoq tillarida esa qisqartma sifatlar mavjud emas. Bularning hammasi o'z o'rnida tillar o'rtasida juda ko'p kelishmovchiliklarni keltirib chiqaradi.

References:

1. Azizov O va boshqalar. O'zbek va rus tillarining qiyosiy grammatikasi Toshkent: "O'qituvchi" nashriyoti. 1965.
2. O. Azizov va boshqalar. O'zbek va rus tillarining qiyosiy grammatikasi. Toshkent: "O'qituvchi" nashriyoti. 1986.
3. Da'wletov A va boshqalar Ha'zirgi qoraqalpaq a'debiy tili. No'kis: "Bilim" nashriyoti. 2010.